



NOMODDIY MADANIY MEROSNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

To'g'onboyeva Ziyodaxon

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat
instituti talabasi

Xolmo'minov Mo'minmirzo

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7836057>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-april 2023 yil

Ma'qullandi: 15-april 2023 yil

Nashr qilindi: 17-april 2023 yil

KEY WORDS

*doston, qissa, xalq og'zaki ijodi,
hikoya, urf-odat, syujet*

ABSTRACT

Ushbu maqola nomoddiy madaniy merosning o'rni, uni asrab-avaylash va ta'lim tizimiga tatbiq etish xususida so'z boradi.

Ma'lumki, har bir xalqning madaniyati, nomoddiy merosi o'sha xalqning o'zligini ifodalaydi. Ana shu o'ziga xos nomoddiy meros namunalari bilan har biri alohida ajralib turadi va boshqalar ham ana o'sha o'ziga xoslik sabab ham ularni taniydi, biladi. Xususan, biz o'zbek xalqini ham chet xalqlar o'ziga xos madaniyatimiz, asrlar osha davom etib kelayotgan va o'tmishimizdan so'zlaydigan dostonlarimiz-u, maqomlarimizdan bilishadi. Milliy kiyim va milliy taomlarimizdan tanishadi va qiziqishadi. Bu kabi madaniy meros namunalari albatta hurmat qilinishi kerak. Shuningdek nomoddiy madaniy merosning muhofaza qilinishi, saqlanishi va kelgusi avlodlarga yetkazilishi barqaror taraqqiyotga o'z hissasini qo'shishi ham kundek ravshan. Chunki, biror xalqning nomoddiy madaniy merosida barqaror taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omil yo'q va bu meros to'laligicha taraqqiyotga xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy meros namunalari orasida o'zbek xalq dostonlari alohida ajralib turadi. Aynan dostonlarimiz o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Xo'sh doston nima? Doston so'zi "qissa", "hikoya", "sarguzasht", "ta'rif" va "maqto'v" ma'nolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik hajmli epic asarlarni anglatadi. Dostonlarda tasvirlangan voqealar xalqimizning axloqiy, falsafiy, diniy qarashlarini, hayoti, urf-odatlarini qomusiy bir tarzda ifodalaydi. Aynan dostonlar orqali yana bir nomoddiy merosimiz namunasi bo'lgan baxshichilik san'ati bir so'z bilan aytganda vujudga keldi va kun sayin rivoj topib bormoqda. Dostonlarning bugungi kungacha yetib kelishi va saqlanib kelinayotgani baxshilarimiz bilan chambarchas bog'liq. Sababi, dostonlarimiz ular tomonidan kuylangan va ustoz-shogirt an'anasi orqali yetib kelgan. Shuningdek, nomoddiy madaniy meros namunalalarimiz tilde, ijro san'atida, xalqning urf-odatlari, marosimlari, bayramlarida, o'ziga xos musiqa va raqs san'atida, tabiat va koinotga oid bilimlar yig'indisida, an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarda namoyon bo'ladi. Bularning barchasi

yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyat taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda o'z hissasini qo'shib keladi. Xususan, musiqa yo'nalishi bo'yicha "Shoshmaqom", "Xorazm maqomlari", "Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari", "Lazgi", "Suvora", "Katta ashula", o'lan, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar va huduga xos boshqa yo'nalishlar kiradi. Raqs yo'nalishi bo'yicha Farg'ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari o'ziga xos o'ringa egadir.

Nomoddiy madaniy merosni o'rganib quyidagi natijalarga kelish mumkin:

- tarixan shakllangan diniy tasavvurlarda tabiat va koinotga doir bilim va urf-odatlar ulug'lashtirilgan;
- xalq og'zaki namunalari inson va koinot munosabatlari ta'riflangan;
- turli davrlarda tabiat va koinot bilan bog'liq urf-odat, marosim va bayramlar amalga oshirilganligi izohlangan.

Yurtimizda nomoddiy madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, muhofaza qilish hamda kelgusi avlodlarga aslicha yetkazish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilgan va oshirilmogda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-qaroriga 1-ilova - "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturi"ning 5-bandida nomoddiy madaniy merosning barcha yo'nalishlari bo'yicha grantlar ajratilishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, tadqiqot ishlariga yosh olimlarni jalb etish vazifasi ham qo'yilgan. Bugungi kunda, amal qilayotgan nomoddiy madaniy meros mavzusi bilan bog'liq amaliy-texnik tadqiqotlar dasturlaridan qutidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- YOA1-003. Yosh olimlarning "o'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish" mavzusidagi 2014-2015-yillarga mo'ljallangan amaliy loyihasi;
- YUNESKOning Bangkok shahrida joylashgan Mintaqaviy vakolatxonasi bilan hamkorlikda "Barqaror taraqqiyot uchun ta'limni kuchaytirish maqsadida pedagoglar orasida nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilish" mavzusidagi xalqaro loyiha;
- A1-018. "Nomoddiy madaniy meros va o'zbek folklori ijrochilik san'ati nomli multimediy shaklidagi elektron o'quv qo'llanmasi 2015-2017-yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida takrorlash.[1;8]

Aynan yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarida nomoddiy madaniy merosni o'rganish hamda ta'lim tizimiga tatbiq etish zaruriyati quyidagicha izohlanadi:

- Madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish umumiy o'rta ta'lim hamda madaniyat va san'at kollejlari bilan cheklanib qolganligi;
- Nomoddiy-madaniy meros hamda o'zbek xalqining folklori ijrochilik san'ati nomli multimediy shaklidagi o'quv qo'llanmaning asoslarini ishlab chiqish zarurati mavjudligi kabi bir qator asoslar keltirib o'tilgan. [2:32]

Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etishda ilmiy-tadqiqot loyiha ishlarini uzluksiz olib borish bitiruv malakaviy, magistrlik, doktorlik dissertatsiyalari hamda o'qituvchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda yaqindan yordam beradi. Chindan ham yuqorida keltirib o'tilganidek, nomoddiy madaniy merosimiz ta'lim tizimiga kutilganidek tatbiq etilsa, uning yanda rivojlanishi uchun ilmiy-nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilsa, ushbu o'lmas qadimiy durdona namunalari yo'qolib ketmaydi. Kun sayin rivoj topib, sayqallanib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nomoddiy madaniy merosning tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalarini ijtimoiy-gumanitar fanlar negiziga singdirish\\Uslubiy qo'llanma\\ T.: "NAVRO'Z" nashriyoti 2015. – 64 b.
2. Nomoddiy madaniy meros va folklore ijro san'ati an'analari\\ navro'z nashriyoti

